

Tashqi savdo

(dastlabki ma'lumot)


2017 yil yanvar-dekabr

Respublikada tashqi savdo aylanmasi 2017 yil yanvar-dekabr oylarida 27,0 mlrd. AQSh dollarini, shu jumladan eksport 14,0 mlrd. AQSh dollarini va import 13,0 mlrd. AQSh dollarini tashkil qildi. Tashqi savdo aylanmasi saldosi 945,5 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Oxirgi yillarda Respublikaning eksport tarkibida qariyb barcha tovarlar va xizmatlar guruhlari bo'yicha o'sish kuzatilmoqda.

Transformator va akkumulyatorlar eksportining o'tgan yilning shu davriga nisbatan 54,8 foizga, kabelli sim mahsulotlarining 33,3 foizga, qozonlar, uskunalar va mexanik asboblari va ularning qismlarining 24,0 foizga o'sishi, mashina va asbob-uskunalar 60,1 foizga o'sishiga olib keldi.

Alkogol va alkogolsiz ichimliklar eksportining o'tgan yilning shu davriga nisbatan 61,1 foizga, bug'doy 32,2 foizga va meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash 15,6 foizga o'sishi, oziq-ovqat mahsulotlari hajmining 26,1 foizga o'sishiga olib keldi.




Tashqi savdo

Qora va rangli metallarni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 29,5 foizga o'sishiga, rux va undan tayyorlangan mahsulotlarni 45,4 foizga, alyuminiy va undan tayyorlangan mahsulotlarni 80,0 foizga, mis va undan tayyorlangan mahsulotlarni 34,7 foizga o'sishi sabab bo'ldi.

Import tarkibining umumiy hajmidan 38,9 foizni mashina va asbob-uskunalar va 16,5 foizini kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar tashkil qiladi.

Import tarkibi, foizda



Xizmatlar eksporti



Eksport tarkibining umumiy hajmidan 25,1 foizni xizmatlar tashkil qiladi, bunda transport xizmatlari 11,5 foizni va safarlar 11,3 foizni tashkil qiladi.



Tashqi savdo

2017 yil yanvar-dekabr oylarida tashqi savdo aylanmasi saldosi 945,5 mln.AQSh dollari tashkil qildi, shundan MDH davlatlari bilan 809,5 mln.AQSh dollari va boshqa davlatlar bilan 136,0 mln.AQSh dollari tashkil etdi.


2017 yilning yanvar-dekabrida respublikaning tashqi savdo aylanmasi quyidagi ma'lumotlarda tavsiflanadi:

	mln. AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan foizda	umumiy hajmga nisbatan foizda
Eksport	13953,8	115,4	100,0
paxta tolasi	477,0	74,8	3,4
oziq-ovqat mahsulotlari	875,8	126,1	6,3
kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	883,3	105,0	6,3
energiya manbaalari va neft mahsulotlari	1980,1	115,5	14,2
qora va rangli metallar	917,5	129,5	6,6
mashina va asbob-uskunalar	353,3	160,1	2,5
xizmatlar	3505,7	112,3	25,1
boshqalar	4961,1	119,3	35,6
Import	13008,3	107,2	100,0
oziq-ovqat mahsulotlari	1272,7	88,4	9,8
kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	2147,6	101,3	16,5
energiya manbaalari va neft mahsulotlari	742,0	126,0	5,7
qora va rangli metallar	1274,3	138,4	9,8
mashina va asbob-uskunalar	5054,0	100,7	38,9
xizmatlar	980,1	121,1	7,5
boshqalar	1537,6	123,8	11,8

Tashqi savdo


2017 yil yanvar-dekabr oylarida respublika tashqi savdo aylanmasida eng katta ulushga ega bo'lgan mamlakatlar, foizda

MDH davlatlari orasida Rossiya, Qozog'iston, Ukraina, Qirg'iziston va Tojikiston davlatlari tashqi savdo aylanmasida asosiy xamkorlar hisoblanib, ularning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 28,7 foizni tashkil qildi, boshqa davlatlar orasida Xitoy, Turkiya, Koreya Respublikasi, Germaniya, Afg'oniston, Braziliya, Xindiston, Eron, Latviya, Litva, Frantsiya, AQSh, Italiya davlatlari hisoblanadi va ularning ulushi 41,6 foizni tashkil qildi.




Jami eksport-import hajmida eng katta ulushga ega bo'lgan mamlakatlar, foizda

Eksport



Import



Tashqi savdo


Meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksport xajmi 708,8 mln. AQSh dollarini tashkil qildi, yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 15,6 foizga oshdi. Meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksport hajmida 35,9 foizni meva va rezavorlar (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 17,0 foizga o'sdi), 30,7 foizni sabzavotlar (18,6 foizga), 22,5 foizni uzum (12,2 foizga) va 4,1 foizni qayta ishlangan meva va sabzavot mahsulotlari (49,9 foizga) tashkil qiladi.

Tashqi savdo aylanmasida asosiy hamkor davlatlar Qozog'iston (umumiy hajmdan 46,4 foiz), Rossiya (18,0 foiz), Afg'oniston (6,6 foiz), Xitoy (5,7 foiz), Turkiya (4,5 foiz), Qirg'iziston (4,3 foiz) va Iroq (1,7 foiz) hisoblanadi.



Eksport tarkibining umumiy hajmidan 5,1 foizni meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash tashkil qiladi

Yirik hamkor davlatlar bo'yicha meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlashning eksportdagi ulushi, foizda



Tashqi savdo

To'qimachilik mahsulotlari eksporti



	mln. AQSh dollari	umumiy hajmga nisbatan foizda	o'tgan yilga nisbatan foizda
To'qimachilik mahsulotlari	1133,2	100,0	122,8
shu jumladan:			
paxtadan yigirilgan ip	631,3	55,7	126,9
tayyor to'qima matolar va tikuvchilik kiyimlari	268,4	23,7	124,0
ip (paxta) gazlama	53,8	4,8	115,9
trikataj gazlama	50,4	4,4	77,3
gilamlar	34,4	3,0	176,4
boshqa tayyor to'qimachilik mahsulotlari, pardalar	31,6	2,8	143,6
ipak	30,9	2,7	147,1
paxta, paypoq va mato bo'lmagan materiallar, arqon mahsulotlari	24,7	2,2	90,8
boshqa tovarlar	7,7	0,7	98,7

Yil yakuni bo'yicha to'qimachilik mahsulotlari eksporti umumiy eksport xajmida 8,1 foizni tashkil qildi. To'qimachilik mahsulotlari eksport hajmi 1133,2 mln. AQSh dollarini tashkil qildi yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 22,8 foizga oshdi.



**Davlat statistika qo'mitasi
Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi
boshqarmasi**

Nashr uchun mas'ul:

**Bo'lim boshlig'i
J.Yuldashev**

71) 230-80-44